



ABDULLA QODIRIY'S MASTERY IN THE USE OF LINGUOPOETIC DEVICES

Urak Pazilovich Lafasov

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
lafas1963@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-0557-3476>
<https://doi.org/10.36078/1789030039>

Abstract. This article examines Abdulla Qodiriy, the founder of the Uzbek novel, as an outstanding writer and a poet of refined aesthetic sensibility. It suggests that the poetic passages in his novels, composed in both *aruz* and syllabic metres, were written by Qodiriy himself and that each poem reflects the author's inner poetic experience. The study analyses the poems incorporated into his novels, including the quatrains inscribed on Kumushbibi's tombstone, the lament on Nasim's death, and the poetic correspondence between Anvar and Ra'no. It demonstrates how Qodiriy achieved a distinctive artistic effect through such linguopoetic devices as metaphor, hyperbole, simile, epithet, personification, *talmih* (literary allusion), and irony. The article also considers Qodiriy's short prose works as an important stage in the development of his literary career. His stories, published under the pen name Julqunboy, address educational, political, and satirical themes. "Juvonboz" portrays the beauty of nature and educated, poetically inclined Uzbek women while condemning moral depravity. "Uloqda" offers a distinctive representation of traditional Uzbek clothing, everyday life, national character, and the *tulpor*, the hero's noble horse and faithful companion. "Tinch ish" presents obedience and worship as the principal and enduring concerns of the *ulema*. "Jinlar bazmi" depicts Uzbek national cuisine, dining customs, patterns of speech, and the influence of mythological beliefs found in Uzbek folklore. The analysis shows that Qodiriy employed the epistolary technique widely used in Uzbek folk epics and gradually developed, through his short stories, the artistic principles that would later underpin his longer prose works, particularly his novels. The article notes that the writer drew upon Uzbek folklore and classical Uzbek literature, as well as literary works written in Turkish, Arabic, Persian, Russian, and other languages. His novel *O'tgan kunlar* (*Bygone Days*) is regarded as an outstanding work of Uzbek national literature. Its imagery and linguopoetic devices reveal a close relationship with Uzbek folklore and classical literary traditions. The study concludes that Qodiriy conveyed the artistic individuality of his characters through portraiture, while their attitudes and relationships were expressed through a rich system of imagery.

Keywords: Abdulla Qodiriy; poet; writer; linguopoetic means; national novel; national form.

ABDULLA QODIRIYNING LINGVOPOETIK VOSITALARNI QO‘LLASH MAHORATI

Urak Pazilovich Lafasov

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston*

Annotatsiya. Maqolada milliy romanchiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriyning faqat ulug‘ yozuvchi bo‘libgina qolmasdan, balki nozik didli nazm ustasi ham bo‘lganligi haqida ma‘lumot berilgan. Romanlaridagi aruz va barmoq vaznlarida yozilgan she‘riy parchalarni adibning o‘zi bitganligi va har bir she‘ri shoirona ichki kechinmalar mahsuli sifatida namoyon bo‘lganligi aytib o‘tilgan. Romanlaridagi yozuvchi tomonidan ijod qilingan she‘rlar muallif tomonidan Kumushbibining qabrtoshidagi to‘rtlik, Nasimning vafotiga yozilgan marsiya, Anvar bilan Ra‘noning she‘riy mushoirasi, Anvar bilan Ra‘noning yozma bahribaytlari shaklida tavsiflangan holda izohlangan. So‘z ustasining ushbu she‘rlarda metafora, mubolag‘a, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, talmeh va kinoya kabi lingvopoetik unsurlarni qo‘llab beqiyos badiiy san‘at yaratganligi ta‘kidlangan. Adib yozuvchilik kasbiga jajji nasriy asarlar bitish bilan tamal toshini qo‘yib borganligi sharhlangan. Julqunboyning hikoyalari ma‘rifatparvarlik, siyosiy va hajviy yo‘nalishlarda yozilgani qayd qilingan. Adibning “Juvonboz” hikoyasida ona tabiatdan zavq olish, o‘qimishli va shoirtabiat o‘zbek ayollari tasvirlangan bo‘lsa, besoqolbozlik kabi qabih illat qoralanganligi sharhlangan. “Uloqda” hikoyasida o‘zbeklarning kiyinish madaniyati, hayot tarzi, xarakter-xususiyatlari, uning ko‘makdoshi bo‘lgan tulpori ayricha tarzda berilganligi qayd etilgan. “Tinch ish” hikoyasida ulamo qavmining asosiy va doimiy ishi toat-ibodatga da‘vat etish ekanligi e‘tirof etilgan. “Jinlar bazmi” hikoyasida o‘zbeklarning milliy taomi, ovqatlanish madaniyati va suhbatlashish tarzi, xalq og‘zaki ijodidagi mifologik tushunchalarning ta‘siri ham ochib berilgan. So‘z ustasi o‘zbek xalq dostonlarida juda ko‘p uchraydigan xat yozish badiiy usulidan foydalanganligi, yirik nasriy asar(roman)larini yozish uchun tamal toshini kichik hikoyalarida asta-sekinlik bilan qo‘yib borganligi isbotlangan. Abdulla Qodiriy o‘zbek folklori, mumtoz adabiyot namunalari, shuningdek, turkiy, arab, fors, rus va boshqa tillarda yozilgan badiiy asarlarni o‘qib o‘rganganligi to‘g‘risida aytib o‘tilgan. Yozuvchining “O‘tkan kunlar” romani milliy adabiyotimizda badiiyatning yuksak namunasi hisoblanishi, undagi badiiy tasvirlar, lingvopoetik vositalar xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz asarlari bilan uyg‘un holda yaratilganligi izohlangan. Adib obrazlar tasviridagi badiiylikni qahramonlarning portreti orqali, munosabat ifodalaridagi badiiylikni esa turli tasvirlar orqali bayon qilgani dalillangan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy; shoir; yozuvchi; lingvopoetik vosita; milliy roman; milliy shakl.

Kirish

Har qanday adib uslubi asta-sekin nazmdan va nasrga yoki, aksincha, nasrdan va nazmga tomon o‘sib shakllanib boradi. Abdulla Qodiriy ijodini kuzatadigan bo‘lsak, agar adib avval sodda, el qatori she‘rlar yozgan. So‘ng

o'zbek dostonlari ta'sirida nasrimizning takrorlanmas jozibasini his qilgach, hikoya va qissalar bitishni boshlagan. Shu asnoda milliy sochma nasrimizni G'arbda urf bo'lgan yangi, zamonaviy janr orqali jahonga tanitishni o'z oldiga oliy maqsad sifatida qo'ygandir [Kўshжонов, 2005: 34].

Buyuk o'zbek adibi, milliy romanchiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriy ulug' yozuvchi va nozik didli nazm ustasi ham bo'lgan. Hatto Abdulhamid Cho'lpondek talantli shoiri zamon ham "*Qodiriy yaxshiyam shoir bo'lmagan, shoir bo'lganda bizga son yo'q edi*" [Мақсудий, 1996: 8–9], degan iqroini aytgan edi. Abdulla Qodiriydagi shoirlik oddiy havas bo'lmay, yuqori darajadagi iste'dod edi. Romanlaridagi she'riy parchalarni uning o'zi bitgan va har bir she'ri shoirona ichki kechinmalar mahsuli sifatida namoyon bo'lgan. Qodiriyning she'rlari badiiy jihatdan mukammal shaklda aruz va barmoq vaznlari talabida yozilgan.

Ushbu joyda Abdulla Qodiriyning romanlaridagi she'rlariga to'xtalib o'tishni lozim topdik:

1. Kumushbibining qabrtoshidagi to'rtlik:

*Ayo charx, etding ortiq jabr **bunyod**,*

*Ko'zim yoshlig', tilimda qoldi **faryod**.*

*Hayotim lolazoridin **ayurding**,*

*Yoqib jonim, kulim ko'kka **sovurding*** [Qodiriy Abdulla, 1994: 374].

Mazkur to'rtlikda taqdir zarbasi oldida ilojsiz bandaning yaratganga so'ngsiz munojoti, cheksiz qayg'u tufayli behad iztiroblari, kutilmagan zarbadan esankirash, azoblanish holatlari bayon qilingan. Shoir [Мирвалиев, 2004: 20] o'z fikrlarini yorqinlashtirish uchun o'xshatish, metafora, jonlantirish kabi lingvopoetik vositalardan foydalangan. Aslida Abdulla Qodiriy o'z romanining dastlabki qo'lyozma nusxasida Kumushning qabrtoshi uchun Fuzuliydan quyidagi baytni olgan ekan:

*Hamrohim eding bu yo'lda ey **moh**,*

*Hamrohni tashlab ketarmi **hamroh**...*

"O'tkan kunlar" romanning qo'lyozmasi bilan to'liq tanishgan ilk muxlislar Qodiriydan asarning badiiyatini kuchaytirish uchun tasvirga mos she'rni adibning o'zi ijod qilishini so'rashgan. Ana shu taklifdan so'ng yozuvchi yuqorida keltirilgan to'rtlikni o'zi yozib olib kelgan ekan. Bu haqda G'ayratiiy domla o'z xotiralarida ma'lumot bergan [Қодирий Х, 2005: 170]. Yuqoridagi dalil agar yozuvchi ilk kitobxonining beg'araz

taklifini inobatga olsa, asaridagi badiiyat yanada mukammal holga kelishini tasdiqlaydi.

2. Ra'noning o'z otasiga yozgan hazil she'ri:

*Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar taqsirim,
Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim.
Mening uchun bir zirak, Ra'nobonuga jevak,
Desa oyim – "Ne kerak?!" yumma talar taqsirim.
"Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas,
Jevak taqish farz emas!" g'avg'o solar taqsirim (397-bet).*

Ushbu hajviy she'rda Solih maxdumning o'ta ziqnaligiga nisbatan qizining tanqidiy munosabati kulgili tarzda bayon etilgan. Bizga ma'lumki, Abdulla Qodiriy o'z ijodi davomida juda ko'p felyetonlar yozgan. Shuning uchun hajviyot borasida tajribasi oshgan edi. Shoir hajviyada kinoya, mubolag'a kabi lingvopoetik unsurlar qo'llangan holda badiiy san'at yaratgan.

2. Nasimning vafotiga yozilgan marsiya:

*Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi piru **juvon** yig'lar,
Emas pir-u juvon, balki hamma ahli **jahon** yig'lar.
Ajal yag'mogari bog'i zako ichra uzib zanjir,
Rahmsiz ezsa ma'sum lolalarni, chun **xazon** yig'lar.
Nasimim ketdi olamdin meni qayg'u aro tashlab,
Ko'zimdin oqsa xun hech bir ajab yo'q, chunki **qon** yig'lar.
Jahonda erdi tanho men yatimga hamnishin, dildor,
G'ariblikning diyorida adashkan **notavon** yig'lar...(423-bet)*

Mazkur marsiya she'rda taqdirning bevaqt ayrilig'iga nisbatan chin do'stning iztiroblari, ota-onaning qayg'uli holati o'z aksini topgan. Shoir she'rda do'stidan judo bo'lgan og'aynining, farzandidan ajralgan ota-onaning ruhiy holatiga beqiyos chizgilar vositasida bergan. She'rning ta'sir kuchi ana shu ichki kechinmalarda namoyon bo'ladi. Adib ushbu she'rda metafora, o'xshatish, sifatlash va jonlantirish kabi lingvopoetik unsurlarni qo'llab, beqiyos badiiy san'at yaratgan.

3. Anvar bilan Ra'noning yozma she'riy mushoirasi:

Anvar: *Agar Farhodning Shirin, bo'lsa Majnunlarning **Laylosi**,*

Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning "Ra'no"si (472-bet).

Bizga ma'lumki, Alisher Navoiy dostonida vafo va sadoqat, ilohiy muhabbat timsollari mukammal darajada aks ettirilgan. Abdulla Qodiriy ham ana beqiyos tasvirdan ilhomlanib, o'zi bitgan baytda mazkur timsollarga ishora qilgan holda talmeh, metafora singari lingvopoetik vositalardan foydalangan.

Ra'no: *Agar or etsa Laylo haqlidir Qaysning jununidin,*

Ne baxt, Ra'no xaridoring talab ahlining "Mirzo"si (472-bet).

So'z ustasi yana Navoiy hazratlari ijod qilgan ilohiy muhabbat shaydosi timsoliga murojaat qilgan. Ishq yo'lida majnunlik yo'lini tutgan Qaysdan Layli or qilsa haqli edi. Ammo bu jihatdan Ra'noning ko'ngli to'qdir, chunki uning yori oshiqlarning aqllisi va ziyoli rahnamosidir. Adib mazkur baytda talmeh, kinoya san'atlaridan foydalangan.

Anvar: *Hamisha xavfda ko'nglim bu muhabbat intixosidin,*

Meni ham etmasa majnun debon Ra'noning savdosi (472-bet).

Oshiq ishqning ijobatidan xavotirga tushgan holda, hatto ushbu oshiqlik yo'lida majnunlikni ham bo'yniga olgandir. So'z san'atkori ushbu baytda talmeh, o'xshatish san'atlaridan foydalangan.

Ra'no: *Muhabbat jomidin no'sh aylagan ahli zako bo'lmish,*

Fununi tilda majnundir kishining kuysa safrosi (473-bet).

Ishq ahli oshiqlik yo'liga kirgach, bu boradagi fikri tiniqlashadi. Ammo o'zini unutadi va jununlik sari yo'l soladi. Ra'noning yori ham ana shu holat tomon odimlamoqdadir. So'z ustasi baytda o'xshatish, kinoya san'atlarini lingvopoetik unsur sifatida ishlatgan.

4. Anvar bilan Ra'noning yozma bahribaytlari:

Anvar: *Nag'ma unlari,*

Bahor kunlari,

Ishrat tunlari,

Yetarmi, Ra'no? (555-bet).

Ra'no: *Kecha-kunduzlar,*

Qizardi yuzlar,

Uyatli so'zlar,

Bitarmi, mirzo? (555-bet).

=====

O‘choq boshidan

Do‘sti qoshidan –

Qarab Roshidan

Ketarmi, mirzo? (556-bet).

=====

Manglayin qashib,

Mendan ham oshib,

Javobim shoshib,

Yetarmi, mirzo? (556-bet).

Oshiq yigit Anvar o‘z yorining visoliga tezroq yetishishni istab, qalb so‘zlarini erkakcha piching orqali bayon qilmoqda. Ammo hayo pardasiga chulg‘angan ma’shuqasi Ra’no esa yorining pardasiz so‘zlaridan norozi bo‘lib, hozirjavoblik bilan oshiq yigitni bahribaytda yuqori ustunlik bilan mot qiladi. Bu bilan muhabbat ko‘ngil tubidagi yashirin javohirligiga ishora qilmoqdadir. Ushbu to‘rtliklar barmoq, ya’ni o‘zbek xalq qo‘shiqlari vaznida yozilgan. So‘z zargari mazkur she’rlarda badiiy san’atga tegishli juda ko‘p lingvopoetik vositalardan foydalangan [Lafasov, 2026: 82].

Abdulla Qodiriy o‘sha davr voqeligiga mos “Sarbozcha” ashulasini qayta yozgan va asariga kiritgan:

Shahanshohim, shahanshohim, baxtingiz kulsin!

Davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko‘rsin!

Qalqon ushlab, xanjar taqqan yovlar maydonga!

Nomussizlar, vafosizlik qildingmu xong‘a!

Bizning aytkan nazrimiz bor Shohimardong‘a!

Ahdin buzib dinin sotqan bo‘yalgay qong‘a!

Shahanshohim, shahanshohim, baxtingiz kulsin!

Davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko‘rsin!

Adib ashula matnida mubolag‘a, o‘xshatish kabi san’atlar qo‘llangan. Askarlarga shiddat baxsh etadigan harbiy marsh voqelik bilan uyg‘unlik kasb etgan.

Yozuvchi romanlaridagi voqealar rivoji, qahramonlarning xarakter-xususiyatlariga mos ash'orlarni o'zi bitgan. Ana shu she'riy misralar asar mazmunini yanada mukammal darajaga ko'targan, ularsiz asardagi voqelikni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Abdulla Qodiriy yozuvchilik kasbiga jajji nasriy asarlar bitish bilan tamal toshini qo'yib borgan. Adibning ijodida hikoyalar alohida orin tutadi va ularda turli mavzular qalamga olingan. Julqunboy *“hikoyani sersuv (o'qilishli) qiladigan narsalardan biri ko'rsatish o'rniga so'zlab berishdir”*, — deb ta'kidlagan edi [Қодирий Абдулла, 1995: 6]. Darhaqiqat, so'z ustasi o'zining ilk hikoyalarida ana shu qoidani meyoriga yetkaza olmaganligi haqidagi tanqidchilarning izohlarini ko'rish mumkin. Abdulla Qodiriyning e'tiroficha: *“Haqiqiy yozuvchi bo'lmoq uchun turmushni har tomonlama o'rganish, buning uchun har sohalaridan xabardor bo'lish kerak”* [Қодирий Абдулла, 1995: 4]. Adib insonlarning yashash tarzi, milliy qadriyatlari va kasb-korlaridan xabardorlik har qanday tasvir uchun zarurligini ta'kidlagan.

Abdulla Qodiriyda *“yozuvchi bo'laman degan har bir kishi o'zida turmushning mayda-chuydalarigacha kuzata oladigan qobiliyatni o'stirishi kerak”*, – degan sharh bor [Қодирий Абдулла, 1995: 5]. Yozuvchining beshta hikoyasi bor: *“Juvonboz”* (1915-yilda yozilgan, yozuvchi uni dastlab ro'mon deb atagan, o'sha paytlarda kattaroq hikoyalarga nisbatan ham ana shu termin ishlatilgan bo'lsa kerak), *“Uloqda”* (1915), *“Tinch ish”* (1921), *“Jinlar bazmi”* (1921), *“Shubha”* (1935). Ushbu realistik hikoyalar quyidagi yo'nalishlarda ijod qilingan: 1) ma'rifatparvarlik yo'nalishida: *“Juvonboz”*, *“Uloqda”*; 2) siyosiy yo'nalishda: *“Tinch ish”*, *“Shubha”*; 3) hajviy yo'nalishda: *“Jinlar bazmi”*.

Asosiy qism

Adibning ilk hikoyasi *“Juvonboz”* quyidagi tasvir bilan boshlanadi: *“Hamal oyining o'n beshlari bo'lub, bahor avvali edi. Havolar isib, bahor shamollari daraxtlarni har tarafg'a egmaqda edi va har xil parrandalar daraxtlarda bir-birlari bilan o'ynashib yoqimlik ovozlari bilan sayramaqda edi”* [Қодирий, 1995: 19]. Mazkur ifodada ona tabiatdan zavq olish, milliy ruhiyatning o'zgacha jozibasi aks etgan. Ushbu fikr Abdulla Qodiriyning qalbidan otilib chiqqan noyob topilmadir. O'lkamizda ko'klamning boshlanish paytidagi go'zallik Abdulhamid Cho'lponni ham o'ziga maftun etgan. U ham *“Kecha va kunduz”* romanini ana shu hamal oyi tasviri bilan boshlagan edi [Чўлпон, 2000: 3]. Bu esa yozuvchilarimiz dunyoqarashidagi milliylikning uyg'unligidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy hikoyasida yana bir e'tiborli o'rin bor. U quyidagi fikrda o'z ifodasini topgan: *“Solihaning onasi katta otun bo'lganlikdan qizi Solihani*

ham o‘qutib, otinbibi qilgan edi” (19-bet). Ko‘rish mumkinki, Abdulla Qodiriy tomonidan barcha asarlarida yaratilgan o‘zbek ayollarining timsollari savodli, o‘qimishli va shoirtabiat shaxslardir. Adib o‘zbekona turmush tarzining ana shu jihatini hech qachon nazardan qochirmaganligi uchun ham uning bu zukkoligiga tahsinlar aytish joizdir.

Yozuvchining *“Uloqda”* hikoyasida qahramonning kiyinishi tasvirida ham o‘zbeklarga xos xususiyatlar jamlangan: *“Akam ham shohi sallasi va beqasam to‘nini manga berib, o‘zi o‘rtaga ot o‘ynatib ketdi”* (32-bet). So‘z ustasi ijodining dastlabki davrlaridan o‘zbek millatining boshqa turkiy xalqlardan ajralib turuvchi jihatlariga urg‘u berishni boshlagan. Adib o‘zbeklarning kiyinish madaniyati, hayot tarzi, xarakter-xususiyatlarini ayriicha tarzda berishga harakat qilgan. O‘zbekning boshidagi *“salla”*si chin musulmonlik belgisi bo‘lsa, *“beqasam* (qasam ichmaydiganlarning kiyimi) *to‘n”*i esa milliy libosi bo‘lish bilan birga ranglari tasavvufiy ma‘nolarga to‘la chin musulmon libosidir. Aslida *“Quroni Karim”*da insonlarning qasam ichishi yomon illat sifatida qoralangan. O‘zbekning oti, ya‘ni *“tulpor”*i doimiy ko‘makdoshi, madadkori va sirdoshidir. Chunki o‘zbekning hayotini yilqisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zining sadoqatli jonivoriga hurmat o‘zbek millatining qoniga singib ketgan. Ushbu betakror holat dostonlarimizda mukammal darajada aks ettirilgan.

Abdulla Qodiriy *“Tinch ish”* hikoyasida quyidagi ajoyib fikrni bayon qilgan: *“Bu kungi imomgarchilikka kelganda: “Buning o‘zi xo‘b tinch ish-de! deb aytadir”* (40-bet). Mazkur ibratli fikrdan shu holat ayon bo‘ladiki, ulamo qavmining asosiy va doimiy ishi toat-ibodatga da‘vat etishdir, ya‘ni siyosatga aralashish emas [Собинов, 1975: 26]. Qodiriyning ushbu qimmatli fikri hozir ham o‘z ahamiyatini to‘liq saqlab turibdi.

So‘z ustasi *“Shubha”* hikoyasida keltirilgan fikrdan adibning onayurtimiz tabiatiga doimo maftun bolganligini his etish mumkin: *“Qishloq ustidan kecha qorong‘ilig‘i bir oz ko‘tarilib, tabiat quyuq tuman ichida kabi go‘zal ko‘runur edi. Tevarakdan xo‘roz qichqirg‘an tovushlar eshitilib, onda-sonda qush sayroqlari ham quloqqa kirar edi”* (66-bet). Mazkur tasvirda yurtimizga xos tabiat go‘zalligi, kunning ma‘lum bir paytida xos betakror manzara o‘z aksini topgan. Aksariyat so‘z ustalari, jumladan, Abdulla Qodiriy ham diyorimiz tonggi tarovati, betakrorligini ko‘p tasvirlagan. Jadidlardan Abdulhamid Cho‘lpondagi tonggi tarovatni his etishning o‘zgacha go‘zalligi, uni tong kuychisiga aylantirgan.

So‘z zargarining *“Jinlar bazmi”* hikoyasida quyidagi fikr bayon qilingan: *“Kecha xolam bizning uyga mehmon bo‘lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o‘tirar va o‘tgan-ketgandan so‘zlashar edilar. So‘z aylanib kelib, yana o‘sha jinlar, parilar,*

devlar to'g'risida to'xtadi" (40-bet). Tasvirdagi ifodalarda o'zbeklarning milliy taomi, ovqatlanish madaniyati va suhbatlashish tarzi o'z aksini topgan. Millatimiz ongiga xalq og'zaki ijodidagi mifologik tushunchalarning ta'siri ham ochib berilgan. Ushbu izoh Abdulla Qodiriyning bolalikdan sinchkov bo'lganligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq dostonlarida juda ko'p uchraydigan *xat yozish//maktub bitish* badiiy usulidan Abdulla Qodiriy ilk bor "Juvonboz" hikoyasida foydalangan. Ba'zi sajiyasi noqis bo'lgan adabiyotshunoslar da'vo qilganlaridek, ushbu badiiy usulni adib arab yozuvchisi Jurji Zaydondan ko'chirgan emas. "Juvonboz" hikoyasi qahramoni Raufboy o'g'li Sa'dullani madrasada o'qitadi. Shu o'rinda osha davr mullavachalari orasida ildiz otgan besoqolbozlik illati ham ochib berilgan va ayovsiz tanqid qilingan. Maktub bitishga o'xshash dostonlarimizda uchraydigan turli milliy tasvirlar adib romanlarida keng jabhada mukammal qo'llangan. Adib "*Tinch ish*" hikoyada domla Sharif Oxundning yuz tuzilishi, kiyinishi, holatiga oid ajoyib chizgilarni bergan, ayni shunga monand tasvirlarni romanlarida ham ko'rish mumkin. Kitobxonni o'ziga jalb etadigan shaharlarning eski hayoti, milliy davlatlarimizdagi o'ziga xosliklar, xalq orzu qilgan hurriyatga tegishli tasvirlar yozuvchining romanlarida ancha kengaytirilgan.

O'zbek xalq dostonlaridan ilhomlanib yozilgan "*Jinlar bazmi*" hikoyasidagi o'zbek oila davrasidagi suhatlar, romantik xayoliy sarguzashtga asoslangan jinlarning musiqa sozlari chalib bazm qilishlari, kuy sehriga maftun bo'lgan bolaning holatiga oid tasvirlarni adib romanlarida reallashtirilib, yangi, aniq hayotiy lavhalarda yoritib bergan. "*Shubha*" hikoyasida keltirib o'tilgan kechasi dushman bilan kurashish, jinoyatdan xabari bor odamlarning yashirin harakatlari, birovga nohaq tuhmat qilish holatlari, devor oshib qo'rg'onga tushish, qorong'i kechalalarda dili qora kimsalarning yurishlari, adolat izlagan jabrdiydalarning ularni poylashlari, qabih niyatlarning fosh bo'lishiga tegishli tasvirlar ham yozuvchining yirik asarlarida badiiy jihatdan mukammal, keng lavhalarda yoritilgan. Shuning uchun ham Abdulla Qodiriyning hikoya va romanlarini xalqimiz hozir ham sevib o'qiydi.

Demak, so'z ustasi yirik nasriy asar(roman)larini yozish uchun tamal toshini kichik hikoyalarida asta-sekinlik bilan qo'yib borgan. Tajriba ortgan sayin tasvirdagi badiiylilik kuchaygan, turli lingvopoetik vositalardan o'z o'rnida foydalanish mahorati o'sib borgan. Keyinchalik ko'p o'rganish, izlanish va o'qish asnosida yozuvchilik tajribasini oshirib, badiiy adabiyotning sir-asrorlarini chuqur tushunib yetgan [Мирзаев И. 1977. 46-бет]. Abdulla Qodiriy o'zbek milliy adabiyotining yirik turlaridan biri bo'lgan sochma nasrdagi badiiyatni xalq og'zaki ijodimiz va mumtoz

asarlarimizda keltirilgan dalillardan foydalangan holda yuksak darajaga ko'tara olgan.

Abdulla Qodiriy sanoqli yozuvchilargagina nasib etgan noyob iste'dod sohibidir. U kishi o'zbek [Lafasov, 2024: 293] milliy adabiyotimizda badiiy tasvirning betakror namunalarini yaratdi. Abdulla Qodiriy so'z ustasi sifatida milliy tilimizga xos bo'lgan o'zgacha badiiyligni xalq og'zaki ijodi namunalaridan va mumtoz asarlarimizdan izlab topdi. Ana shu lingvopoetik vositalar orqali romanlarida ona tilimizning ayricha badiiy jozibasini yorqin, bo'rttirilgan shakllarda yuzaga chiqara bildi [Лафасов, 2021: 1]. Yozuvchi tilimizdagi bu bebaho boylikni topish uchun juda ko'p vaqt, uzoq izlandi. Adib o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini, mumtoz o'zbek adabiyoti namunalarini, shuningdek turkiy, arab, fors, rus va boshqa tillarda [Қодирий Ш., 1994: 38] yozilgan badiiy asarlarni o'qib o'rgangan.

Uzoq izlanishlardan so'ng nihoyat so'z ustasi o'zi ko'zlagan maqsadga erishdi. Ana shu izlab topilgan noyob topilmalar natijasi o'laroq, milliy tilimizga xos badiiyatni yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Abdulla Qodiriy [Lafasov, 2020: 1851] ijod qilgan har bir ifoda, jumla kitobxon qalbining tub-tubiga kirib bordi. Shuning uchun ham o'zbek milliy adabiyotida yozuvchi badiiyat qiroli bo'lib qoldi. Adib romanlarini qayta-qayta o'qib mag'zini chaqqan, uning buyukligini to'la tan olgan adabiyotshunos olimlar uni o'zbek milliy romanchilik maktabining asoschisi sifatida e'tirof etishdi [Қодирий Х., 2004: 15].

So'z ustasi bitgan badiiy matnlar hozir ham tengsizligicha qolmoqda. Yozuvchi ijod qilgan romanlar uning nomini tillarda doston qildi. Abdulla Qodiriyning "*O'tkan kunlar*" romani milliy adabiyotimizda badiiyatning yuksak namunasi hisoblanadi. Undagi badiiy tasvirlar xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz asarlari bilan uyg'un holda yaratilgan.

1. Qbrazlar tasviridagi badiiylig.

1) Otabek portreti. M.: *Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq* [Qodiriy Abdulla, 1994: 3]... Yozuvchi sifat, sifatdosh yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Bu o'rinda orttirma daraja shaklidan foydalangan, jumla tuzishda esa aniqllovchilarni ahiqlanmishiga mos tushirilgan, fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilingan.

2) Homidning portreti. M.: ...*uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlk, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttiz beshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi...*(8-bet). Adib bu joyda sifatlar asosida badiiy ifodalar yaratgan. Birikma tuzishda aniqllovchilar aniqlanmishga moslashgan. "*Ko'rimsiz*" leksik birligi

umumlashtirish ma'nosida qo'llangan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, tashqi ko'rinishdagi salbiy holatni o'zida mujassamlashtirgan.

3) Hasanalining portreti. M.: ...**cho'ziq yuzlik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik...** (8-bet). Abdulla Qodiriy mazkur o'rinda sifatlar vositasida badiiy ifoda yaratgan. Do'nggiroq – qiyosiy daraja, oppoq – orttirma daraja, cho'ziq, qora, to'garak, uzun – oddiy daraja. “Sariqqa moyil” esa belgining kuchsizligini ifodalagan. Birikmalar tuzishda aniqlovchilar aniqlanmishiga moslashgan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, tashqi ko'rinishdagi nuroniylikni o'zida mujassam etgan.

4) Mirzakarim qutidor portreti. M.: ...**qora qosh, qora ko'z, ko'rkam yuz, yaxshigina kiyingan...** (14-bet). So'z ustasi ushbu joyda sifatlardan foydalanib badiiy ifoda yaratgan, orttirma daraja shaklidan foydalangan. Birikmalar tuzishda aniqlovchilar aniqlanmishiga mos kelgan. Fikrlar tashqi ko'rinishdagi bejirimlikni aks ettirgan.

5) Oftob oyim portreti. M.: *Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftob oyim* (29-bet). Yozuvchi mazkur o'rinda sifat vositasida badiiy ifoda yaratgan. Jumalardagi aniqlovchi va aniqlanmishlar mos tushgan. Yana ot va birikmalar ham ayol sajiyadagi saidalikni aks ettirgan.

6) Kumushbibini portreti. M.: *Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyug jinggila koprak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o'lturdi. Sariq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'krigi bir oz ko'tarilib turmoq-da edi. Turib o'lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratga kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibini.* Adib bu o'rinda sifat, ot, sifatdosh, son va birikmalar yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Ortirma hamda ozaytirma daraja shakllaridan foydalanilgan va matnda o'xshatish san'ati o'z aksini topgan. Birikmalar

tuzishda aniqlovchilar aniqlanmishiga mos kelgan, ayrimlari esa yoyiq shaklda berilgan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, qahramonning tashqi ko'rinishdagi o'ta suluvlikni o'zida mujassam etgan.

7) kelin tasviri: a) M.: *Boshdag'i oq shohi ro'ymol, ichidagi oq shohi ko'ynak, ustidagi oq kumush zarrin sirilgan po'stin bag'baqalarni o'rab o'pib turg'an yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggila sochlarini bo'yin tevaragiga chirmashqani, xom nuqra yuzlarning bo'g'riqqani...*(54-bet). So'z ustasi bu joyda sifat, sifatdosh hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Orttirma daraja shaklidan ham foydalangan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, tashqi ko'rinishdagi tengsiz go'zallikni mujassam etgan; b) M.: *Burchakda qizlar majlisida ko'rilgan oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bejalgan uyning oqlari, ko'klari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib xayoliy bir siymoda...* (59-60-betlar). So'z zargari bu joyda sifatdosh sifat, son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar bitishuv va moslashuv shaklida berilgan; c) M.: *Qip-qizarg'an holda Kumush ko'rindi: paranjisi qo'lida, qora atlas ko'ynak egnida, zangor latta mursak ustida, oq shohi ro'ymol boshida edi. Shahlo ko'zlari kulimsirashka yaqin holda uyatlik edilar* (311-bet). Julqunboy bu joyda sifatdosh, sifat hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

8) kuyov tasviri. M.: *Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar – Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek – kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradir* (58-bet). Yozuvchi bu joyda sifat, sifatdosh hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. So'zlar bog'lanishida birikma va sodda gap shakllari qo'llangan.

9) Xoliqbek qo'rboshi portreti. M.: *...boshig'a ko'k salla chulg'ag'an, egniga O'ratepaning bosmasidan chakman, beliga kumush kamar bog'lab kumush qinlik qilichini tizasiga bosqan, qora tanlik bo'lsa ham ko'knorimi, taryakmi iste'molidan yuzi sarg'ayg'an qirq-yelli yoshlar chamaliq bir kishi yorliqsumon bir yozuvni o'qub o'lturmoqda edi* (63-bet). Adib bu joyda sifat, sifatdosh, son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar moslashuv, bitishuv shakllarida berilgan.

10) qushbegi portreti. M.: *To'rdagi kichkina eshik ochilib ichkaridan to'la yuzlik, o'siq qoshliq, og'ir qarag'uchi ko'zlik, siyrak soqol, o'rta bo'yliq, ustidan kimxob to'n kiyib, beliga qilich osqan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi ko'rindi* (69-bet). So'z ustasi bu joyda sifat, sifatdosh,

son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

11) Azizbek portreti. M.: *Oradan uch-to'rt daqiqa o'tkandan keyin Kamolon tarafidan bir yuz chamaliq sarkarda va yigitlari bilan Azizbek ko'rindi. Tilla jabduqli qizil ayg'irg'a mingan, quyosh yog'dusi bilan turlik tuska kirib tovlanadirg'an, yoqa va etaklariga oltin uqa tutilgan kimbob to'n kiyib, belidagi oltin kamarga kumush qinli jazoiri qilich osqan, boshig'a oq shohidan salla o'rab, oyoqlarini kumush uzangiga tiragan, siyrak qoshlik, cho'qqi soqol, bug'doy ranglik, qirq besh elli yoshlar chamaliq bir kishi edi* (81-bet). So'z zargari bu joyda sifat, sifatdosh, son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar bitishuv, moslashuv shakllarida berilgan.

12) Rayimbek dodxoh portreti. M.: *Uning orqasidan qora otg'a otlanib, zangori movutdan uqalik to'n kiygan, kumush kamarning o'ng tomonig'a qilich, so'lig'a to'fangcha qistirg'an, boshig'a barra popoq kiyib, jin yalag'an deganlaridek qoshsiz, qoramtil yuzlik, ikki chakagining ustida bir oz, iyagida bir oz siyrak, ko'rimsiz qora soqollik, ko'zlari ichiga botig'roq, ammo qon quyilg'ansumon bir kishi kelar edi. Bu kishi Azizbekning amri lashkari va o'ng qo'li bo'lg'an Rayimbek dodxoh edi* (81-82-betlar). Yozuvchi bu joyda sifat, sifatdosh, son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Sifatning ozaytirma, qiyosiy darajalari, o'xshatish san'atidan foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

13) Yusufbek hoji portreti. M.: *Uning qatoridag'i ikkinchi kishi kichikroq saman otka otlanib, ustiga Buxoroning ola bayroq matasidan chopon kiyib, kamar o'rniga choponini tugmalagan, boshig'a katta salla o'rab, qamchi sopi bilan egarning qoshig'a takya qilg'an; to'la ko'rkam yuzlik, katta malla ko'zlik, uzun mosh-guruch soqollik mullanamo bir zot bo'lib, bu kishi yaroqsiz edi* (82-bet). Adib bu joyda sifat, sifatdosh, son hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Sifatning qiyosiy, orttirma darajalaridan foydalangan. Birikmalar bitishuv, boshqaruv shakllarida berilgan.

14) Xudoyorxon portreti. M.: *Shu jallodlar orasidan o'tib uchunchi bo'limga kirilsa, qarshida yarim gazlar yuksaklikda to'rt oyog'liq oq marmardan yasalg'an taxt ustida oltin kamarga taqilg'an oltin sopliq qilichini tizasi ustiga ko'ndalang qo'yib, qizil duxobadan tikilgan po'stun kamzul ustidan adras to'n kiygan, boshig'a simobi shohi salla o'rag'an o'n sakkiz yoshlar chamaliq, cho'ziqqina yuzlik, bug'doy ranglik xon o'lturar edi* (113-bet). So'z ustasi bu joyda sifat, sifatdosh hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

15) Musulmonqul portreti. M.: *Xonning so‘l tomonidag‘i **oltin hallik kursi** kishidan bo‘sh, o‘ngdagi – ichki saroyga kiradigan eshikcha yonidag‘i kursi ustida O‘ratepa chakmani ustidan **qayish** kamar bog‘lab, **soddag‘ina qilich taqing‘an, boshig‘a oq barra** popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik **tekis** yaratilg‘an, **o‘rtacha** soqol, **qisiq** ko‘z, **bug‘doy rang**, o‘rta yoshliq bir qirg‘iz – Musulmonqul o‘lturar va hozirg‘ina hundaychi tarafidan o‘ziga topshirilg‘an ariza va maktublardan ochib o‘qur edi (113-114-betlar). So‘z zargari bu joyda sifat hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Sifatning ozaytirma darajasidan foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo‘lib, tashqi ko‘rinishdagi salbiy holatni o‘zida mujassam etgan.*

16) Jannat opa portreti. M.: *“Ul yerdan bichib olg‘andek **pak-pakana**, burni yuzi bilan barobar **deyarlik tep-tekis**, ko‘zi **qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur**, og‘zi **qoshiq solar darajada katta**, yuzi **qirq yillik og‘riqlarnikidek sap-sariq**, qirq yoshlar chamasi **bir xotin...**” (168-bet). Julqunboy ushbu o‘rinda sifat, sifatdosh, ravish hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Bunda orttirma daraja shaklidan va metafora san‘atidan foydalangan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo‘lib, tashqi ko‘rinishdagi salbiy holatni o‘zida mujassam etgan.*

17) Sodiqlar portreti. M.: *“Yigirma ikki yoshlar chamasida bolg‘an bu yigit **sariq tanlik, ukkuning ko‘zidek chaqchayib, o‘ynab va yonib turg‘an qizil** ko‘zlik, yuziga **parchinlang‘andek yuza** (puchug) burunlik, manglayi **qancha tashqarig‘a o‘sib chiqq‘an bo‘lsa**, yuzi **o‘shancha ichkariga ketkan**, qisqasi **vaqtsizroq yaratilib qolg‘an bir mahluq edi**” (174-bet). Yozuvchi mazkur o‘rinda ravishdosh va sifatdoshlar yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Matnda o‘xshatish va tazod san‘ati aks etgan. Fikrlar mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan bo‘lib, tashqi ko‘rinishdagi salbiy holatni o‘zida mujassam etgan.*

18) usta Alim portreti. M.: *Bu kishi qirq yoshlar chamaliq, **qonsiz yuzlik, siyrakkina** soqollik, **qo‘y** ko‘z, ko‘b vaqt madrasa riyozatini chekkannamo, **qotma, uzun bo‘ylik bir odam** edi. Ayvonning polos va asboblari uncha **boyliq** ko‘rilmasa ham **puxta, ozoda, chirk yuqturilmag‘an yo‘sunda** yig‘ishtirilg‘anlig‘idan egasining **rind tabi‘atlik** ekaniga shahodat bermakda edi (186-bet). Yozuvchi mazkur o‘rinda sifat, sifatdoshlar yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Bunda ozaytirma, orttirma daraja shakllaridan, o‘xshatish va tazod san‘atlarida foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.*

19) Saodat portreti. M.: *Kunlardan bir kun hali kishidan qochar darajaga yetmagan o‘n uch-o‘n to‘rt yoshlar chamaliq **do‘ndiqqina bir qiz***

kelib, men chiqarg'an yangi nusxa shohidan so'radi (192-bet). ...*qizning gunohsiz o'ynab turg'an qora ko'zlari, qizil olmadek taram-taram yuzlari hamon ko'z o'ngimda ko'rinib turar edilar* (193-bet). ...*uning qoshini, ko'zini, tusini, qo'g'urchoqdek qaddini ko'z o'ngimda tuta-tuta tamom bir yillik bilishlardek bo'lib qolibman* (193-bet). So'z ustasi bu joyda sifat yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Bunda ozaytirma daraja shaklidan, o'xshatish san'atidan foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

20) Xushro'y portreti. M.: *Xushro'y uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lavzi tez edi* (353-bet). So'z zargari bu joyda sifat hamda ot yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Sifatning qiyosiy darajasidan foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

21) Zaynab portreti. M.: *Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradig'an edi* (353-bet). Julqunboy bu joyda sifat hamda son yordamida badiiy ifodalar yaratgan. Sifatning orttirma darajasidan foydalangan. Birikmalar bitishuv shaklida berilgan.

2. Munosabat ifodalaridagi badiiylik.

1) Yusufbek hojining xatidagi tasvir. M.: *"Huvalbori(ul tangri)... ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimiz mevasi..."* (35-bet). Yozuvchi bu joyda otlar orqali folklorga xos saj badiiy ifodasini yaratgan. Qaratqich bilan qaralmish bir-biriga mos kelgan. Fikr mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan va metafora san'ati aks etgan.

2) sovchining fikridagi tasvir. M.: a) *...kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradirda bir kimsaning iffat pardasi ostida o'lturgan qizining yuzidagi niqobni ko'tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifa (pokiza qiz)ga ro'baro' qiladir"* (43-bet). Adib bu joyda bitishuvli birikmalar orqali badiiy ifoda yaratgan. Fikr mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan, ifodada o'xshatish san'ati o'z aksini topgan; b) *Biz, o'zimizning bu kelishimizda sizning uchun dunyoga orzug'uliy bir o'g'ul hadiya etkanimizdek, inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun mujassamai iffat bo'lg'an bir rafiqah tuhfa qilarmiz* (43-bet). So'z ustasi mazkur o'rinda ot va sondan fodalaniib, badiiy ifoda yaratgan. Fikr mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan va o'xshatish san'ati aks etgan.

3) bo'lajak qaynata fikridagi tasvir. M.: *Мурзакарум қўмудор: – Otabek kabi bir yigitni o'g'ul qilish sharafiga noil bo'la olsam o'zimni eng baxtlik otalardan sanar edim, – dedi nihoyat qutidor, – ammo bu to'g'ridagi hamma ixtiyor o'z qo'limda bo'lmay orada ko'krak suti berib o'sdirg'an xotin ham bor... Bu ish uchun yolg'iz o'zim qabul javobi*

bersam-da, onasi **bir chekkada** qoldirilsa, ehtimol, **puxta** ish qilmag'an bo'larmiz (44-bet). So'z ustasi mazkur o'rinda ot, son va sifatdan fodalanib badiiy ifoda yaratgan. Fikr mantiqiy ketma-ketlikka asoslangan va o'xshatish san'ati aks etgan.

4) qizlar yig'ini tasviri. M.: *Qizlar majlisi – gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda – Kumushbibining tog'asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi! Bu uyga o'ttuz-qirq chamaliq qizlar yig'ilg'anlar, yig'ilishdan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir a'zolarini bu kun xotinliq olamiga uzatmoqchidirlar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o'tkazmak uchun barcha qizlar o'zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis a'zolarini bir martaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkin-ki, albatta esingiz chiqib ketar: – Bu gulmi, ko'hlik? Yo'q narigisi! Undan ko'ra bunisi! Barisidan ham o'ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg'a kelalmay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo'lursiz. Mana, majlis a'zolari shunaqangg'i bir-biravidan o'toq malaklar, parilar edilar* (53-bet). Qodiriy ot, sifat, son va olmoshlardan foydalanib badiiy ifoda yaratgan. Gapda metafora san'ati aks etgan. Uyushiq bo'laklar esa fikrni yanada kuchaytirgan. Birikmalarda qaratqich qaralmishiga mos tushgan holda fikrni yanada kuchaytirgan.

5) Otabekning birinchi xatidagi tasvir. M.: *Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimg'a!* (177-bet). Adib mazkur o'rinda otlardan foydalanib, badiiy ifoda yaratgan. Gapda metafora san'ati aks etgan. Birikmalarda qaratqich qaralmishiga mos tushgan holda fikrni yanada kuchaytirgan.

6) Otabekning ikkinchi xatidagi tasvir. M.: *Oy yuzlik rafiqam, qunduz qoshlik ma'shuqam Kumush xonimga!* (263-bet). Yozuvchi bu o'rinda sifat va otlardan foydalanib badiiy ifoda yaratgan. Birikmalarda sifatlovchi sifatlanmishiga mos tushgan holda fikrni kuchaytirgan.

7) Kumushbibining birinchi xatidagi tasvir. M.: *Yusuf savdosida Zulayho ismidan, Majnun ishqida yiglagan Layli otidan – sizga boshimdagi sochlarimning tuklaricha salom. Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan – kechirish* (299-bet). So'z ustasi bu joyda atoqli otlardan foydalanib badiiy ifoda yaratgan. Gapda talmeh san'ati aks etgan. Birikmalarda qaratqich qaralmishiga mos tushgan holda fikrni kuchaytirgan.

8) Kumushbibining ikkinchi xatidagi tasvir. M.: *...Siz ranjisangiz ham aytoy: qayin otamni o'z dadamdan ham yaxshi ko'raman. Bu yaxshi ko'rishim kuyavingizning dadasi bo'lg'ani uchun emas, balki uning nur*

ichiga cho‘milg‘andek bo‘lib ko‘ringan siymosini, oyim deb xitob qilg‘andag‘i muloyim, beozor va muassir (ta’sirchan) so‘zini yaxshi ko‘raman” (364-bet). Adib mazkur o‘rinda kengaygan birikma va sifatlar vositasida badiiy ifoda yaratgan. Gapda metafora san’ati aks etgan. Birikmalarda qaratqich qaralmishiga, sifatlovchi sifatlanmishiga mos tushgan holda ajoyib mantiqiylik kasb etgan.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy ulug‘ yozuvchi bo‘lishi bilan birga iste’dodli shoir ham bo‘lgan. Agar u shoirlikni kasb qilib she’rlar bitishda davom etganda ham mumtoz va zamonaviy she’riyatimizni yuqori cho‘qqiga olib chiqqan buyuk siymolaridan biri bo‘lishi aniq edi. Adibdagi yozuvchilik iste’dodi takrorlanmas bo‘lib, ushbu holat uning asarlari badiiyatida to‘laligicha namoyon bo‘lgan. Shu bois Julqunboy ijod qilgan lingvopoetik vositalarni o‘zida jamlagan lavhalar yozma badiiyatning tengsiz namunasi bo‘lib qolaveradi. Aytish joizki, Abdulla Qodiriy asarlarining bebaholigini adabiyotning qadriga yetadiganlar tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Қўшжонов М. Қодирий – эркисизлик қурбони. — Тошкент: Фан, 1992. — 96 б.

Ҳожи Юнус Мақсудий. Хазон бўлган тақдирлар. — Тошкент: Халқ мероси, 1995. — 84 б.

Қодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. — 656 б.

Қодирий А. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. — Тошкент: Фан, 1995. — 294 б.

Чўлпон Абдулҳамид. Кеча ва кундуз. Кеча. Биринчи китоб. — Тошкент: Шарқ, 2000. — 287 б.

Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. — Тошкент: Фан, 2004. — 176 б.

Қодирий Ҳ. Отамдан хотира. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. — 415 б.

Lafasov U.P. Sinonim va antonimlar lingvopoetik vosita sifatida // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. — 2026. — Vol. 3, № 6. — B. 87–92. — DOI: 10.67227.

- Қодирий А. Ижод машаққати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 16 б.
- Собиров О. Сарчашма адиб ижодида. — Тошкент: Фан, 1975. — 68 б.
- Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. — Тошкент: Фан, 1977. — 150 б.
- Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture // *İmgelem*. — 2024. — *Özbekistan Özel Sayısı*. — P. 293–310.
- Лафасов У.П. Абдулла Қодирий романларидаги саж ва гул билан боғлиқ тасвирлар // *XXI аср: фан ва таълим масалалари*. — 2021. — № 4. — Б. 1–12.
- Қодирий Ш. Қодирийни қўмсаб (ёднома). — Тошкент: Халқ мероси, 1994. — 80 б.
- Lafasov U.P. The King of Uzbek Prose // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. — 2020. — Vol. 24, Issue 05. — P. 1851–1862.
- Қодирий Х. Абдулла Қодирий (таърифи адиб). — Тошкент: Халқ мероси, 2004. — 32 б.
- Мирзаев И. Абдулла Қодирий. — Тошкент: Фан, 1975. — 68 б.

References

- Kushzhonov, M. (1992). *Kodirij – erksizlik kurboni* (Kodiri – Victim of Servitude), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Hozhi Yunus Maksudij. (1995). *Khazon bulghan takdirlar* (Faded Destinies), Tashkent, Khalk merosi. (In Uzb.)
- Kodirij, A. (1994). *Utkan kunlar. Mehrobdan chayon* (Bygone Days. Scorpion from the Mihrab), Tashkent, Adabiyot va san'at. (In Uzb.)
- Kodirij, A. (1995). *Tula asarlar toplami* (Complete Works), Vol. 1, Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Chulpon, A. (2000). *Kecha va kunduz. Kecha* (Night and Day. Night), Book 1, Tashkent, Sharq. (In Uzb.)
- Mirvaliev, S. (2004). *Abdulla Kodirij* (Abdulla Kodiri), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Kodirij, H. (2005). *Otamdan khotira* (Remembrance of My Father), Tashkent, Yangi asr avlodi. (In Uzb.)

- Lafasov, U. P. (2026). *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, Vol. 3, No. 6, pp. 87–92, <https://doi.org/10.67227/b4mc9r38> (In Uzb.)
- Kodirij, A. (1995). *Izhod mashakkati* (The Hardship of Creation), Tashkent, Ukituvchi. (In Uzb.)
- Sobirov, O. (1975). *Sarchashma adib izhodida* (The Source in the Writer's Work), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Mirzaev, I. (1977). *Abdulla Kodirijning izhodij evolyutsiyasi* (Creative Evolution of Abdulla Kodiri), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Lafasov, U. P. (2024). *Imgelem*, Özbekistan Özel Sayısı, pp. 293–310. <https://doi.org/10.53791/imgelem.1470929>
- Lafasov, U. P. (2021). *XXI asr: fan va ta'lim masalalari*, No. 4, pp. 1–12. (In Uzb.)
- Kodirij, Sh. (1994). *Kodirijni kumsab (yodnoma)* (Missing Kodiri (Memoir)), Tashkent, Khalk merosi. (In Uzb.)
- Lafasov, U. P. (2020). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 05, pp. 1851–1862.
- Kodirij, Kh. (2004). *Abdulla Kodirij (ta'rifi adib)* (Abdulla Kodiri (Description of the Writer)), Tashkent, Khalk merosi. (In Uzb.)
- Mirzaev, I. (1975). *Abdulla Kodirij* (Abdulla Kodiri), Tashkent, Fan. (In Uzb.)